

**VOYAGA YETMAGANLARNI G'AYRIIJTIMOIY
XATTI-HARAKATLARGA JALB QILGANLIK UCHUN JINOIY JAVOBGARLIK:
MILLIY VA XALQARO TAJRIBA**

Jo'rayev O'zbekxon Dilshodbek o'g'li

Farg'ona davlat universiteti, Huquqshunoslik fakulteti,
Yurisprudensiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi.

Telefon: +998908451200 E-mail jurayevxofiz@gmail.com

M.B. Tillaboyeva

Ilmiy rahbar: y.f.f.d. (PhD).

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20513892>

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda voyaga yetmaganlarni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish muammolari qiyosiy tahlil etilgan. Milliy Jinoyat kodeksi normalari Germaniya, AQSH, Buyuk Britaniya qonunchiligi va BMT konvensiyalari andozalari bilan solishtirilgan.

Kiber-makondagi manipulyatsiyalar xavfi o'rganilib, jinoyat-huquqiy choralarni takomillashtirish hamda profilaktika samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy va ilmiy tavsiyalar, mualliflik takliflari ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Voyaga yetmagan, g'ayriijtimoiy harakat, jinoiy javobgarlik, xalqaro tajriba, BMT Konvensiyasi, kiber-manipulyatsiya, Jinoyat kodeksi, preventiv choralar, qiyosiy huquqshunoslik, yoshlar himoyasi.

**УГОЛОВНАЯ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ВОВЛЕЧЕНИЕ
НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ В АНТИОБЩЕСТВЕННОЕ ПОВЕДЕНИЕ:
НАЦИОНАЛЬНЫЙ И МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ**

Аннотация. В данном исследовании сравнительно проанализированы проблемы вовлечения несовершеннолетних в антиобщественные действия. Нормы национального Уголовного кодекса сопоставлены с законодательством Германии, США, Великобритании и конвенциями ООН. Изучены риски киберманипуляций и выдвинуты практические, научные рекомендации, авторские предложения по совершенствованию уголовно-правовых мер и повышению эффективности профилактики в этой сфере.

Ключевые слова: Несовершеннолетний, антиобщественные действия, уголовная ответственность, международный опыт, Конвенция ООН, киберманипуляция, Уголовный кодекс, превентивные меры, сравнительное правоведение, защита молодежи.

**CRIMINAL LIABILITY FOR INVOLVING MINORS IN ANTISOCIAL BEHAVIOR:
NATIONAL AND INTERNATIONAL EXPERIENCE**

Abstract. This research comprehensively analyzes issues regarding involving minors in antisocial behavior through a comparative lens. National Criminal Code provisions are contrasted with German, US, UK legislation, and UN conventions. Examining cyber-manipulation risks, the study proposes practical, academic recommendations and author suggestions aimed at improving criminal-legal measures and enhancing prevention efficiency.

Keywords: Minor, antisocial behavior, criminal liability, international experience, UN Convention, cyber-manipulation, Criminal Code, preventive measures, comparative jurisprudence, youth protection.

Kirish

Bugungi kunda o'smirlar o'rtasida g'ayriijtimoiy illatlarning tarqalishi nafaqat huquqiy, balki jiddiy ijtimoiy-psixologik muammo hisoblanadi.

Jinoyatchi elementlar voyaga yetmagan shaxslarning ongi hali to'liq shakllanmaganligidan va tez ta'sirchanligidan foydalanib, ularni o'zlarining g'ayriqonuniy maqsadlari yo'lida qurolga aylantirmoqdalar. Agar ilgari o'smirlarni tilanchilik yoki ichkilikka jalb qilish faqat ko'chada, bevosita jismoniy muloqot orqali sodir etilgan bo'lsa, bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari rivojlangan davrda bu jarayon yashirin psixologik manipulyatsiyalar hamda internet tarmoqlari orqali yanada xavfli tus olmoqda.

Yoshlarni ma'naviy buzg'unchilik ko'chasiga yetaklayotgan bunday zamonaviy tahdidlar jinoiy-huquqiy normalarning samaradorligini tubdan qayta ko'rib chiqishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 127-moddasida voyaga yetmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga, ya'ni tilanchilik qilishga, alkohol, tamaki yoki inson aqliga ta'sir qiluvchi boshqa zararli moddalarni iste'mol qilishga jalb etganlik uchun qat'iy jinoiy javobgarlik belgilangan.

Biroq, amaliyot tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu moddaning bugungi kundagi preventiv (oldini olish) kuchi virtual makondan kelayotgan yeni xavflarga qarshi yetarli darajada kurasha olmayapti. Ijtimoiy tarmoqlardagi virtual oqimlar, pul evaziga o'smirlarning hayoti va sog'lig'ini xavf ostiga qo'yuvchi onlayn "chaqiriqlar" (chellenjlar) va yashirin guruhlar voyaga yetmaganlarni osonlikcha g'ayriijtimoiy hayot tarziga moslashtirmoqda. Mazkur tadqiqotning maqsadi — xalqaro standartlar va xorijiy davlatlar tajribasini tahlil qilgan holda, milliy jinoyat qonunchiligimizni raqamli tahdidlar sharoitida takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning amaliy tahlili

Voyaga yetmagan shaxsni jinoyat qilishga jalb etish deganda, voyaga yetmagan shaxsda jinoyat sodir etish niyatini qo'zg'atishga (dalolatchilik), voyaga yetmagan shaxsni jinoyat sodir etishda ishtirok etishga tayyorlashga (jinoyatni sodir etish joyi va usullari haqida maslahatlar berish, ushbu jinoyat sodir etish natijasida topilgan mulkni realizatsiya qilishda yordam berishni va'da qilish va hokazolar orqali jinoyat sodir etish niyatini qo'zg'atish) yoki uni jinoyatni sodir etishda bajaruvchi, yordamchi, yashiruvchi sifatida jalb qilishga qaratilgan harakatlarni tushunish zarur.

Voyaga yetmagan shaxsni jinoyat qilishga jalb etish aybdorning voyaga yetmagan shaxsga jismoniy yoki ruhiy ta'sir ko'rsatish bilan bog'liq faol harakatlari orqali amalga oshiriladi. Mazkur jinoyat tarkibi uchun subyektning voyaga yetmagan shaxsni qaysi jinoyatga jalb qilganligining ahamiyati yo'q. Voyaga yetmagan shaxsni jinoyat qilishga jalb etish o'smir amalda jinoyat sodir etishga jalb qilingan-qilinmaganligidan qat'i nazar, voyaga yetmagan shaxsni jinoyat sodir etishga jalb etishga qaratilgan harakatlar aybdor tomonidan amalda bajarilgan vaqtdan boshlab tugallangan jinoyat deb topiladi.

Voyaga yetmagan shaxsni ma'lum bir jinoyatni sodir etishga jalb qilgan shaxsning qilmishi, basharti ana shu jinoyat voyaga yetmagan shaxs tomonidan sodir etilgan bo'lsa, Jinoyat kodeksining 28-moddasi 4-qismiga havola qilingan holda (jinoyat sodir etishga dalolatchilik) yoxud aybdorning o'zi ham jinoyatni sodir etishda bevosita ishtirok etgan bo'lsa, bunday havola qilmasdan, voyaga yetmagan shaxs tomonidan sodir etilgan jinoyat uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi Jinoyat kodeksining tegishli moddalari bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Jinoiy-huquqiy taqiqni buzgan o'smir jinoiy javobgarlikka tortish yoshiga yetmagan bo'lsa, aybdorning harakatlari Jinoyat kodeksining 127-moddasi 3-qismidan tashqari, voyaga yetmagan shaxs tomonidan sodir etilgan jinoyatni bilvosita bajarish sifatida baholanadi.

Bunda shuni nazarda tutish kerakki, yosh boladan foydalangan holda jinoyatni sodir etish Jinoyat kodeksining 56-moddasi "j" bandiga muvofiq, jazoni og'irlashtiruvchi holat deb topiladi va jazo tayinlash vaqtida sud tomonidan inobatga olinadi.

Subyektiv tomondan Jinoyat kodeksining 127-moddasida nazarda tutilgan qilmish to'g'ri qasd bilan sodir etiladi. Bunda aybdor g'ayriijtimoiy xatti-harakatga jalb qilinayotgan shaxsning voyaga yetmaganligini bilgan hollardagina mazkur modda bo'yicha jinoiy javobgarlikka tortish mumkin ekanligiga alohida e'tibor qaratish lozim. Shu munosabat bilan Oliy sudi Plenumi ta'kidlaydiki, katta yoshdagi shaxs o'z harakatlari bilan voyaga yetmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilayotganini bilgani holda yoki shunday fikrga ongli ravishda yo'l qo'rganini ham aniqlash shart. Agarda katta yoshdagi kishi shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilsa-yu, lekin uning voyaga yetmaganligini bilmasa yoki bilishi imkoniyati mavjud bo'lmasa, bu holda Jinoyat kodeksining 127-moddasi bilan jinoiy javobgarlikka tortishga yo'l qo'yilmaydi [1]. 18 yoshga to'lgan, aqli raso har qanday jismoniy shaxs mazkur jinoyatning subyektini bo'lishi mumkin.

Shuni ham alohida qayd etish joizki, shaxs voyaga yetmagan bolani spirtli ichimlik yoki aqlga ta'sir qiluvchi moddalar iste'mol qilishga jalb qilsa, birdaniga jinoiy javobgarlikka tortilmaydi. Bunda dastlab ma'muriy prefetsiya tizimi ishlaydi:

Birinchi marta sodir etilganda: Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning (MJtK) 188-moddasiga ko'ra ma'muriy jazo (jarima) chorasi qo'llaniladi.

Takroran sodir etilganda (Bir yil ichida): Agar shaxs ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin bir yil shug'ullanib, yana shu qilmishni takrorlasa, unga nisbatan Jinoyat kodeksining 127-moddasi 1-qismi bo'yicha jinoiy ish qo'zg'atiladi.

Milliy va xalqaro tajriba tahlili

Voyaga yetmagan shaxslarni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilishga qarshi kurashish nafaqat milliy qonunchiligimiz, balki global xalqaro huquqning ham fundamental vazifalaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi BMTning "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasini (1989-yil) rasman ratifikatsiya qilgan bo'lib [2], uning 32, 34 va 36-moddalariga muvofiq, bolalarni har qanday shakldagi g'ayriijtimoiy ekspluatatsiya qilish, ularning ma'naviyati va sog'lig'iga zarar yetkazuvchi harakatlarga jalb etish qat'iy qat'iy taqiqlanadi.

Xalqaro tajriba va rivojlangan xorijiy davlatlar qonunchiligiga nazar tashlaydigan bo'lsak, voyaga yetmaganlarni g'ayriijtimoiy hayotga jalb qilganlik uchun jinoiy javobgarlik mexanizmlari o'ziga xos xususiyatlarga ega: Germaniya tajribasi: Germaniya Jinoyat kodeksining (StGB) 180-moddasiga muvofiq, voyaga yetmagan shaxsni g'ayriijtimoiy yoki axloqsiz hayot tarziga (alkogolizm, fohishabozlik, daydilikka) jalb qilganlik yoki bunga sharoit yaratib berganlik uchun qat'iy jinoiy jazo choralari belgilangan. Germaniya huquq tizimining o'ziga xosligi shundaki, jazoni belgilashda o'smirlarga yetkazilgan ruhiy-ijtimoiy zarar va uning oqibatlari davlat hamda maxsus reabilitatsiya fondlari nazoratida bartaraf etiladi.

Buyuk Britaniya va AQSH tajribasi: Ushbu davlatlar qonunchiligida o'smirlarni jismoniy g'ayriijtimoiy harakatlardan tashqari, kiber-makonda (onlayn qimor, noqonuniy o'yinlar va stream-shoularga) virtual jalb etish tizimi jinoiy javobgarlikning alohida og'irlashtiruvchi ko'rinishi sifatida qaratiladi.

Bizning fikrimizcha, xalqaro tajriba (xususan, kiber-makondagi jinoyatchilik tendensiyalari) shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekiston jinoyat qonunchiligida ham voyaga yetmaganlarni axborot texnologiyalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali yashirincha g'ayriijtimoiy guruhlariga, onlayn qimor va qonunga zid oqimlarga jalb qilganlik uchun javobgarlikni

og'irlashtiruvchi holat sifatida alohida qism (band) bilan kiritish zarur. Bu milliy huquq tizimimizni BMT xalqaro konvensiyalari standartlariga yanada muvofiqlashtirish va yosh avlodni raqamli tahdidlardan real himoya qilish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasida voyaga yetmaganlarni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilishga qarshi kurashishning jinoyat-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan qiyosiy-huquqiy tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

Preventiv ta'sirni kuchaytirish: Jinoyat kodeksining 127-moddasi sanksiyalarini qo'llashda faqat jazo chorasi bilan cheklanmasdan, voyaga yetmaganlarni g'ayriijtimoiy hayotga jalb qilgan shaxslar hisobidan jabrlangan o'smirlarni ijtimoiy-psixologik reabilitatsiya qilish mexanizmlarini yuridik norma sifatida mustahkamlash lozim.

Kiber-tahdidlarni qonuniy tartibga solish: Rivojlangan davlatlar (AQSH, Buyuk Britaniya) tajribasidan kelib chiqib, yoshlarni internet tarmoqlari, onlayn qimor (beting) o'yinlari hamda axloqsiz virtual platformalar orqali g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga tortish holatlarini jinoiy qonunchilikda alohida og'irlashtiruvchi belgi sifatida kvalifikatsiya qilish maqsadga muvofiqdir.

Xalqaro normalar integratsiyasi: Milliy qonunchilik normalarini BMTning "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasi talablariga to'liq muvofiqlashtirish, voyaga yetmaganlarning huquqiy va ma'naviy himoyasini nafaqat real hayotda, balki raqamli makonda ham kafolatlovchi kompleks profilaktika tizimini yaratishni taqozo etadi.

Oliy sud Plenumi qarorlarining jinoiy-huquqiy tahlildagi ahamiyati (Significance of Supreme Court Plenum Resolutions)

Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan yoki ularga nisbatan qaratilgan jinoyat ishlarini to'g'ri kvalifikatsiya qilishda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi Qarori normalari muhim huquqiy va amaliy qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur Plenum qarorining tahlili doirasida ushbu jinoyat tarkibiga oid quyidagi fundamental faktik va protsessual qoidalarga alohida e'tibor qaratish lozim:

Jinoiy javobgarlikka tortish yoshining aniq mezonini (5-band): Oliy sud Plenumi tushuntirishiga ko'ra, jinoiy-huquqiy taqiqni buzgan voyaga yetmagan shaxs tug'ilgan kundan boshlab emas, balki tug'ilgan kuni o'tganidan so'ng, ya'ni ertasi kunning nol soatidan boshlab jinoyat uchun javobgarlik boshlanadigan yoshga to'lgan deb hisoblanadi. Tergov va sud amaliyotida shaxsning yoshini aniqlash uchun ishda albatta tug'ilish guvohnomasi yoki pasportidan fotonusxa mavjudligi majburiydir. Agar yosh sud-tibbiyot ekspertizasi tomonidan aniqlansa, uning tug'ilgan kuni deb ekspertlar aniqlagan yilning eng oxirgi kuni (31-dekabr) hisoblanishi va sud ekspertlar belgilagan eng kam yoshdan kelib chiqishi qat'iy belgilangan.

Kriminal subyektiv tomonni aniqlash va qasd (7-band): Katta yoshdagi shaxsni Jinoyat kodeksining 127-moddasi bilan jinoiy javobgarlikka tortish uchun u o'z harakatlari bilan voyaga yetmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilayotganini ongli ravishda bilganligi yoki shunday fikrga to'g'ridan-to'g'ri yo'l qo'rganligi tergov jarayonida aniqlanishi shart.

Agarda katta yoshdagi kishi shaxsni g'ayriijtimoiy qilmishlarga jalb qilsa-yu, biroq uning voyaga yetmaganligini bilmasa yoki bilishi mumkin bo'lmasa, bu holatda jinoiy javobgarlik vujudga kelmaydi.

Insonparvarlik va jazodan ozod qilish prinsiplari (6-band): Jinoyat kodeksining 87-moddasi 3-qismiga ko'ra, agar g'ayriijtimoiy harakatga jalb qilingan yoki jinoyat sodir etgan o'smir intellektual rivojlanishda o'z yoshiga nisbatan ancha orqada qolgan bo'lsa va sodir etgan

qilmishining ijtimoiy xavflilik mohiyatini to'la ravishda anglab yetmagan bo'lsa, sud jazo o'rniga majburlov choralarini qo'llashi shartligi uqtirilgan.

Tadqiqot jarayonida aniqlangan holatlar shuni ko'rsatadiki, amaldagi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 127-moddasi strukturasi va undagi jinoiy-huquqiy taqiqlar asosan an'anaviy (oflayn) g'ayriijtimoiy harakatlarga (tilanchilik, ichkilikbozlik, zaharli moddalar iste'moli) moslashtirilgan. Biroq zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining shiddatli rivojlanishi voyaga yetmaganlarni g'ayriijtimoiy hayot tarziga jalb qilishning mutlaqo yangi va yashirin formatlarini vujudga keltirdi.

Bugungi kunda kiber-makonda keng tarqalayotgan, o'smirlarning hayoti va sog'lig'ini xavf ostiga qo'yuvchi onlayn "chellenjlar", yashirin virtual oqimlar, internet orqali qimor va tavakkalchilikka asoslangan o'yinlar (onlayn-kazino, bukmekerlik), shuningdek, yoshlar ongi va ruhiyatini manipulyatsiya qilish holatlari amaldagi 127-moddaning dispozitsiyasida to'liq qamrab olinmagan. Bu esa huquqni qo'llash amaliyotida ushbu raqamli qilmishlarni to'g'ri kvalifikatsiya qilishda jiddiy bo'shliqlarni yuzaga keltirmoqda.

Xorijiy davlatlar, xususan, AQSH va Buyuk Britaniya tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, raqamli tarmoqlar orqali bolalarga nisbatan sodir etiladigan har qanday manipulyatsiya jismoniy ta'sir o'tkazish bilan teng darajada xavfli deb baholanadi. Bizning fikrimizcha, amaldagi qonunchilikdagi spirtli ichimliklar yoki tamaki mahsulotlariga jalb qilishda qo'llaniladigan ma'muriy prefetsiya tizimi (avval ma'muriy jazo, keyin jinoiy javobgarlik) kiber-makondagi tahdidlar uchun o'zini oqlamaydi. Chunki virtual makonda jinoyatning qamrovi va oqibati bir soniya ichida minglab o'smirlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun raqamli vositalar (internet, ijtimoiy tarmoqlar) orqali voyaga yetmaganlarni g'ayriijtimoiy harakatlarga jalb qilganlik uchun ma'muriy prefetsiyasiz, to'g'ridan-to'g'ri jinoiy javobgarlikni belgilash davr talabidir.

Natijalarga ko'ra O'tkazilgan qiyosiy-huquqiy tahlillar va xalqaro tajriba (Germaniya, AQSH, Buyuk Britaniya qonunchiligi hamda BMT konvensiyalari) andozalari asosida milliy jinoyat qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha quyidagi aniq ilmiy va amaliy natijalarga erchildi va mualliflik takliflari ishlab chiqildi: Jinoyat kodeksining 127-moddasiga yangi og'irlashtiruvchi belgi kiritish: Voyaga yetmagan shaxslarni internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali g'ayriijtimoiy oqimlarga hamda onlayn o'yinlarga jalb qilish xavfi yuqoriligini inobatga olib, JK 127-moddasini yangi band bilan to'ldirish taklif etiladi:

"O'sha qilmish axborot va telekommunikatsiya tarmoqlaridan, shu jumladan Internet jahon axborot tarmog'idan foydalangan holda sodir etilgan bo'lsa..." — ushbu holat sanksiyani kuchaytiruvchi alohida malakalovchi belgi sifatida belgilanishi lozim.

1. Kiber-manipulyatsiya tushunchasini jinoiy-huquqiy qamrab olish: Voyaga yetmaganlar o'rtasida ommalashayotgan onlayn tavakkalchilikka asoslangan o'yinlar, pul evaziga hayotini xavf ostiga qo'yuvchi chellenjlarni tashkil etish va ularga o'smirlarni jalb qilish harakatlarini JK 127-moddasi dispozitsiyasiga to'g'ridan-to'g'ri huquqiy taqiq sifatida kiritish zarurati isbotlandi.

2. BMT standartlari bilan muvofiqlashtirish: Taklif etilayotgan o'zgarishlar BMTning "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasi talablariga mos kelib, raqamli asrda yosh avlodning ma'naviy, ruhiy va jismoniy xavfsizligini ta'minlashning jinoiy-huquqiy kafolatlarini tubdan oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda

Voyaga yetmaganlarni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish bilan bog'liq qilmishlarning jinoyat-huquqiy xususiyatlari hamda sohadagi xalqaro standartlar o'rganilishi natijasida quyidagi yakuniy konseptual taklif va tavsiyalar ilgari suriladi:

Kvalifikatsiya tizimini raqamlashtirish: Amaldagi Jinoyat kodeksining 127-moddasi dispozitsiyasini bugungi kunning raqamli tahdidlaridan kelib chiqqan holda isloh qilish zarur.

Xususan, o'smirlarni internet platformalari, ijtimoiy tarmoqlar va yashirin guruhlar orqali onlayn qimor (beting), kiber-tovlamachilik kabi qilmishlarga yashirin (latent) manipulyatsiya yo'li bilan jalb etganlik uchun javobgarlikni kuchaytiruvchi alohida og'irlashtiruvchi qism (band) kiritish maqsadga muvofiqdir.

Jazo choralari va ijtimoiy restitutsiyani muvofiqlashtirish: Xorijiy davlatlar (xususan, Germaniya) tajribasini tahlil qilgan holda, voyaga yetmaganlarni jinoiy va g'ayriijtimoiy muhitga tortgan aybdor shaxslarga nisbatan faqatgina ozodlikdan mahrum qilish chorasini qo'llash bilan cheklanib qolmaslik kerak. Aybdorlarning moddiy mablag'lari hisobidan jabrlangan o'smirlarni majburiy tartibda ijtimoiy-psixologik reabilitatsiya qilish va ularga yetkazilgan ma'naviy-ruhiy zararni qoplash mexanizmlarini jinoyat qonunchiligida qat'iy belgilash lozim.

Profilaktika choralari xalqaro andozalarga keltirish: BMTning "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasi talablariga mos ravishda, profilaktika organlari, ta'lim muassasalari va bolalar masalalari bo'yicha komissiyalarning o'zaro hamkorligini yangi bosqichga ko'tarish lozim. Huquqbuzarliklar profilaktikasida jazo muqarrarligi tahdididan ko'ra, kiber-makonda o'smirlarning raqamli gigiyena va huquqiy ongini yuksaltirishga qaratilgan profilaktik filtrlarni kuchaytirish bugungi kunning eng birlamchi huquqiy zarurati hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi (Amaldagi tahriri). – Toshkent: "Yuridik adabiyotlar publish", 2026.
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi (Amaldagi tahriri). – Toshkent: "Yuridik adabiyotlar publish", 2026.
3. BMTning "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasi (1989-yil 20-noyabr) // O'zbekiston Respublikasi Xalqaro shartnomalari to'plami. – URL: lex.uz (Murojaat sanasi: 25.05.2026).
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000-yil 15-sentabrdagi "Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 21-sonli Qarori // O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: lex.uz
5. Rustambayev M. X. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat huquqi sharhi 3-jild: Maxsus qism – Toshkent: "Yuridik adabiyotlar publishing", 2024.